



# MIGRATSIYA VAZIYATIGA OID HISOBOT

O'ZBEKISTON

---

INTERNATIONAL ORGANIZATION FOR MIGRATION (IOM)

MOBILITY TRACKING MATRIX (MTM)



Schweizerische Eidgenossenschaft  
Confédération suisse  
Confederazione Svizzera  
Confederaziun svizra

Swiss Agency for Development  
and Cooperation SDC



Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot  
O'zbekiston vakolatxonasi

O'zbekiston, Toshkent shahri,  
Mirzo Ulug'bek tumani,  
Lomonosov ko'chasi, 4-uy ,  
100077

© 2023 Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot (IOM)

Qo'shimcha ma'lumot uchun:

IOM Toshkent ofisi  
Elektron manzil: [iomtashkent@iom.int](mailto:iomtashkent@iom.int)

## MUNDARIJA

Kirish .....	4
Metodologiya .....	4
Hisobot qamrov doirasi .....	4
Ichki va xalqaro migrantlar soni hamda migratsiya oqimlari .....	5
O'zbekistonda doimiy yashash uchun ruxsatnomalar .....	6
O'zbekistondan ketgan emigrantlar soni va oqimlar .....	6
Borish mamlakatlari: Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya va Koreya Respublikasi .....	7
O'zbekistonga va O'zbekistondan pul o'tkazmalari .....	10
Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati .....	11

## KIRISH

Hisobot 2021-2022-yillar yoki eng so'nggi mavjud yil uchun migratsiya harakati va migrantlar guruhlari bo'yicha milliy va xalqaro axborot to'plamidan olingan ma'lumotlarga asoslanib, O'zbekistondagi migratsiya dinamikasi bo'yicha eng dolzarb dalillarni taqdim etishga qaratilgan. U mamlakatdagi ichki va xalqaro migratsiyaga ta'sir qilishda davom etadigan so'nggi yirik global va mintaqaviy o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. COVID-19 pandemiyasi va uning safar qilishga nisbatan kiritilgan cheklovlar va jiddiy chegara nazorati tufayli yuzaga kelgan harakatchanlikka ta'siri; Rossiyaning Ukrainaga bostirib kirishi va natijada butun mintaqadagi gumanitar inqiroz; O'zbekistonning hamkor davlatlar bilan imzolagan maxsus ikki tomonloma mehnat shartnomalari; va iqlim o'zgarishi inson harakatchanligining turki omili sifatida kabilar shular jumlasidandir.

## METODOLOGIYA

Ushbu hisobotni tuzish adabiyotlarni ko'rib chiqish va tegishli ma'lumotlar to'plamini tahlil qilish orqali amalga oshirildi. IOM statistik ma'lumotlarni to'pladi, ularga ishlov berdi hamda IOMning Venadagi Mintaqaviy byurosiga Ma'lumotlar va tadqiqot guruhi rahbarligida hisobot tahlili ishlab chiqildi. Mamlakatdagi migratsiya harakati to'g'risidagi mintaqaviy hisobotda keltirilgan turli jihatlar ikkilamchini manbalar tahlili orqali yoritilgan.

Tadqiqot va tahlillar xalqaro tashkilotlar, milliy tadqiqot markazlari va Markaziy Osiyo mintaqasi uchun dolzarb bo'lgan mualliflarning hisobotlari va nashrlarini o'rganishni o'z ichiga oldi. Quyidagi muassasalar ushbu hisobot uchun asosiy ma'lumot manbalari bo'lib xizmat qildi:

- Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamenti (DESA),
- Jahon banki (JB),
- Birlashgan Millatlar Tashkilotining Qochqinlar bo'yicha Oliy Komissari (UNHCR),
- Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (UNESCO),
- Milliy statistika idoralari va markaziy banklar.

## HISOBOT QAMROV DOIRASI

Hisobotda keltirilgan tadqiqot barcha migratsiya mavzularini qamrab olish maqsad qilinmagan, balki so'nggi va ishonchli ma'lumotlar mavjud bo'lgan O'zbekiston uchun eng dolzarb mavzularga qaratilgan. Xalqaro migrantlar soni, mamlakatda doimiy yashash uchun ruxsatnomalar, emigrantlar soni va O'zbekistondan migrantlar boruvchi asosiy mamlakatlarga oqimlar va pul o'tkazmalari mazkur tahlilda markaziy o'rinni egallaydi. Shu maqsadda turli manbalardan foydalanilgan, ammo ularda (1) 2021-2022-yillar uchun ma'lumotlar mavjud bo'lmasligi, (2) boshqa ma'lumotlar bilan solishtirib bo'ladigan disagregatsiya qilinmagan yoki ajratma shaklidagi axborotga ega bo'lmasligi yoki (3) umumma'lum metodologiyaga ega bo'lmasligi mumkin. Qo'shimcha ma'lumot olish uchun adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan manbalarga murojaat qiling.


## ICHKI VA XALQARO MIGRANTLAR SONI HAMDA MIGRATSİYA OQIMLARI

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha departamenti (BMT DESA) ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda O'zbekiston 1,6 million xalqaro migrantlarni qabul qilgan, bu o'sha paytdagi mamlakat aholisining deyarli 3,5 foizini tashkil etgan. 2020-yilda O'zbekistonga eng ko'p xalqaro migrantlar Rossiya Federatsiyasi (871,047), so'ngra Ukraina (123,658), Belarusiya (26,330), Ozarbayjon (20,201) va Qozog'istonidan (13092) kelgan. Ayni paytda, 2 milliondan ziyod O'zbekiston fuqarolari xalqaro migrant sifatida xorijda istiqomat qilayotgani taxmin qilinadi, bu esa mamlakat aholisining 6,1 foiziga teng: O'zbek migrantlari boradigan beshta asosiy davlat – Rossiya Federatsiyasi (1,1 million), so'ngra Qozog'iston (296511), Ukraina (223491), Turkmaniston (67003) va Amerika Qo'shma Shtatlari (63496) (BMT DESA, 2021).

UNESCO Statistika Instituti (UIS) ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda O'zbekiston to'rt mingdan ortiq chet ellik talabalarni qabul qilgan bo'lsa, 2020-yilda Janubi-Shargiy Yevropa, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo (SEEECA) mintaqasidan o'z fuqarolarini chet davlatlarga jo'natuvchi ikkinchi yirik davlat bo'ldi – bu vaqtida 85,876 nafar o'zbekistonlik talabalar asosan Qozog'iston, Qirg'iziston, Koreya Respublikasi, Latviya va Turkiya Respublikasiga tahsil olishga jo'nab ketgan (UIS, 2023). 2022-yil iyun holatiga ko'ra, O'zbekistonda 13 mingga yaqin qochqin borligi ma'lum qilingan (BMT Qochqinlar bo'yicha Oliy komissari, 2022 yil) va 2022-yil oxiri holatiga ko'ra, mamlakat ichida hech qanday ichki ko'chib o'tishga majbur bo'lgan aholi qayd etilmagan (IDMC, 2023). 2022-yil iyun oyiga o'rtaqlari holatiga ko'ra, dunyo bo'ylab O'zbekistondan 4324 nafarga yaqin qochqin va 8720 nafar boshpana izlovchi ro'yxatga olingan: O'zbekistonlik qochqinlar uchun yetakchi uch davlat – Amerika Qo'shma Shtatlari (33 foiz), Germaniya (19 foiz) va Shvetsiya (12 foiz) bo'lgan. O'zbekistonlik boshpana izlovchilar asosan Amerika Qo'shma Shtatlari (78 foiz), Shvetsiya (5 foiz) va Buyuk Britaniyaga (4 foiz) borganlari ma'lum bo'lgan (UNHCR, 2022). 2021-yil noyabr oyida O'zbekiston hukumati Afg'onistonda Tolibon guruhi hokimiyatni egallab oorganidan so'ng 2021-yilda 13020 nafar Afg'oniston fuqarosi qisqa muddatli vizalar bilan mamlakatga kelganini ma'lum qilgan. Afg'onistonidagi shart-sharoitni hisobga olgan holda bu odamlar o'z yurtiga qaytib keta olmaydi va BMT Qochqinlar bo'yicha Oliy komissari ularni xalqaro himoyaga muhuj bo'lishi mumkin, deb hisoblaydi (UNHCR, 2023).


O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (O'zStat) mamlakatga kuruvchi va chiquvchilar yuzasidan ichki va xalqaro migratsiya bo'yicha dolzarb ma'lumotlarni taqdim etadi. Ma'lumotlarni yig'ish davri va ta'riflardagi farqlar tufayli, ularning ushuhi hisobotda keltirilgan ma'lumotlari BMT DESA ma'lumotlaridan farq qilishi mumkin. O'zStat ma'lumotlariga muvofiq, 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, mamlakat aholisining umumiyo soni 36 million kishini, migrantlar soni esa 2,3 ming nafarni tashkil etib, ulardan 1,1 ming nafari erkaklar va 1,2 ming nafari ayollardir. 2022-yilda migrantlar soni 2018-yilga nisbatan 21 foizga kamaydi (O'zStat, 2023). 2020-2021 yillardagi pasayish COVID-19 tarqalishini oldini olish uchun dunyo bo'ylab kiritilgan safar chekllovlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

1-RASM: O'ZBEKİSTONGA KO'CHIB KELGANLAR SONI VA O'SISH SUR'ATI, 2018-2022-YILLAR (MING)



Manba: O'zStat, 2023

2-RASM: O'ZBEKİSTONDAGI ICHKI MIGRATSİYA OQIMI, 2018-2022-YILLAR (MING)




Manba: O'zStat, 2023

2022-yilda O'zbekiston hududida ro'yxatga olingan ichki migratsiya soni 214,821 nafarni tashkil etdi, shundan 40 foizi (85,6 mingga teng) erkaklar va 60 foizi (129,2 ming) ayollardir. 2022-yilda ichki migrantlar oqimi 2018-yilga nisbatan 34,1 foizga oshdi (O'zStat, 2023). 2022-yilda 2,3 million kishini tashkil etgan xalqaro migrantlar oqimi 2018-yilga nisbatan 20,7 foizga kamaydi: bunda 52 foizini ayollar, 48 foizini erkaklar tashkil etdi (O'zStat, 2023).

Hududiylar taqsimotga nazar tashlaydigan bo'lsak, O'zbekiston hozirgi vaqtida qishloq joylaridan shaharlarga doimiy ichki migratsiyaning yuqori darajasini boshdan kechirmoqda. Yangi ko'chib kelganlarning 76 foizi (164,3 mingga teng) ichki va xalqaro miqyosda shaharlarda, qolgan 24 foizi (50,5 ming) qishloq joylarda istiqomat qilgan (O'zStat, 2023).

O'zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari ekologik ofatlarga eng ko'p moyil bo'lgan davlatlar qatoriga kiradi. 2030-yilga borib O'zbekiston aholisi 39 million kishiga yetishi taxmin qilinmoqda: tabiyiy ofatlar xavfiga nisbatan moslashtirish ishlari va xavflarni kamaytirish bo'yicha ko'mak bo'lmasa, iqlim o'zgarishining ta'siri ulkan bo'lishi mumkin, bu O'zbekistonning kambag'al va marginallashgan jamoalariga, shuningdek, migratsiya harakati nuqtai nazaridan ham eng ko'p ta'sir qiladi (JB va Osiyo taraqqiyot banki, 2021).

3-RASM: ICHKI MIGRATSİYA TAQSİMOTI, 2022-YIL (FOIZDA)



Manba: O'zStat, 2023

O'ZBEKİSTONDA DOIMİY YASHASH UCHUN RUXSATNOMALAR

2022-yilda O'zbekiston chet el fuqarolariga 2277 ta doimiy yashash ruxsatnomasini berdi: 36 foizi Rossiya Federatsiyasidan kelgan migrantlarga, 31 foizi Qozog'istondan, 19 foizi Markaziy Osiyo (MA)dan tashqari boshqa davlatlardan kelganlarga, 7 foiz Tojikistondan, 5 foiz Qirg'izistondan va 2 foiz Turkmanistondan kelgan migrantlarga taqdim etilidi. Xorijiy fuqarolarga doimiy yashash uchun ruxsatnomalarning 59 foizi mamlakat poytaxti Toshkent shahrida berilgan. (O'zStat, 2023).

## 1-JADVAL: 2022-YILDA BERILGAN DOIMIY YASHASH UCHUN RUXSATNOMALARNING FUQAROLIK BO'YICHА TAQSIMLANISHI (MUTLAQ QIYMATLAR VA FOIZ QIYMATI)

Davlat	Doimiy yashash uchun ruxsatnomalar soni	Foizda
Rossiya Federatsiyasi	813	35.7
Qozog‘iston	716	31.4
Boshqa mamlakatlar	443	19.5
Tojikiston	156	6.9
Qirg‘iziston	111	4.9
Turkmaniston	38	1.7
Jami	2,277	

Manba: O'zStat, 2023

O'ZBEKİSTONDAN KETGAN EMİGRANTLAR SONI VA OQIMLAR


O'zStat ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilda respublikadan chet elga, boshqa manzilga ko'chib o'tganlar soni 880 ming nafarni tashkil etgan. Xuddi shu manbaga ko'ra, 2022-yilda O'zbekistondan ketganlar soni 2018-yilga (1,76 million) nisbatan ikki barobarga (880 ming) kamaygan. 2022-yilda emigratsiyaning gender tarkibi deyarli teng bo'ldi: 53 foizi ayollar, 47 foizi erkaklar (O'zStat, 2023). O'zbekistonlik migrantlar uchun, ular boradigan barcha mamlakatlar to'g'risidagi ma'lumotlar cheklangan bo'lsa-da, Rossiya Federatsiyasidagi mehnat migrantlari soni o'zgarishining bir qancha omillari quyidagilardan iborat[1]:

- ◊ birinchidan, migrantlarning asl mamlakatlaridagi umumiyligi iqtisodiy vaziyat va Rossiya Federatsiyasidagi ish beruvchilarning ehtiyojlari;
  - ◊ ikkinchidan, Rossiya Federatsiyasiga kirish tartibi, ro'yxatdan o'tish tartiblari va Rossiya mehnat bozoriga kirish;
  - ◊ uchinchidan, mehnat bozoridagi vaziyatni tartibga solish maqsadida Rossiya hukumati tomonidan migrantlarni ishga joylashtirishga nisbatan kiritilgan cheklolar ("to'sqlar") (iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha bandlik kvotalarini, patent narxi).


Ko'pincha bu va boshqa omillarning yig'indisi migrantlarning tartibga solingen va tartibga solinmagan migratsiya maqomi o'rtaida harakatlanishiga olib keladi. Rossiya Federatsiyasi Ichki ishlar vazirligining Migratsiya masalalari bosh boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda Rossiya Federatsiyasida ro'yxatga olingan migrantlar va mehnat migrantlari soni COVID-19 pandemiyasi bilan bog'liq cheklovlar tufayli qariyb ikki barobarga kamaygan[2]. Rossiya Federatsiyasi koronavirus taraqlishining oldini olish maqsadida 2020-yil 20-martdan boshlab rejali havo qatnovlarini to'xtatg'anligi sababli, davlatlar o'rtaida faqat charter (birinchi navbatda, chiqish) reyslar amalga oshirilgan bo'lib, pandemiya davrida ko'plab mehnat migrantlari Rossiya Federatsiyasini tark eta olmadı. Rossiya hukumati[3] xorijiy fuqarolarning COVID-19 pandemiyasi davrida mamlakat hududida bo'lish imkoniyatini bir necha bor uzaytirdi, jumladan 2020-yilning 15-iyuniga qadar, 2020-yilning 25-dekabriga qadar, 2021-yilning 15-iyuniga qadar va so'nggi bor 2021-yilning 30-sentabriga qadar uzaytirildi. Tabiiyki, bunday sharoitda Markaziy Osiyo davlatlaridan Rossiya Federatsiyasiga mehnat migrantlarining oqimi keskin kamaydi. Faqat 2021-yil 1-apreldan boshlab O'zbekiston fuqarolari uchun chegaralar ochildi. [4]

O'zStat ma'lumotlarga ko'rса, 2022-yilda o'zbekistonlik migrantlar oqimi 221 ming nafarga teng bo'lgan: jami emigrant oqimining 60 foizini (132,8 ming nafar) ayollar, 40 foizini (88,5 ming nafar) erkaklar tashkil etgan. O'zbek migrantlarining asosiy qismi shaharlardan 66 foiz (145,8 ming), qolgan 34 foizi qishloq joylardan (75,5 ming) bo'lgan (O'zStat, 2023).

## 4-RASM: O'ZBEKISTONDAN KETGAN EMIGRANTLAR SONI VA O'SISH SUR'ATI, 2018-2022-YILLAR (MING)



## 5-RASM: O'ZBEKİSTONDAN KETGAN MİGRANTLAR OQIMI VA O'SISH SUR'ATI, 2018-2022-YILLAR (MING)



Manba: O'zStat, 2023

<sup>1</sup> Markazi Osiyo – Rossiya Federatsiyasi migratsiya yo'lagida mehnat migratsiyasi dinamikasini o'rorganish https://russia.iom.int/sites/g/files/tmzbd1036/files/documents/report\_ryazantsev\_consolidated\_2021\_en.pdf

<sup>2</sup> Rossiya Federatsiyasi Ichki ishlar vazirligi. Migratsiya statistikasi. URL: [www.mvd.ru](http://www.mvd.ru)

<sup>3</sup> Rossiya Federasiyasidagi tarkibni vazifasi. Ming'atda yuqorida statistikasi. URL: [www.mvd.ru](https://www.mvd.ru)

Rossiya Federasiyasidagi mehnat migrantlari. Noqonuniy migrantlar O'zbekistonga qaytadilarmi? // DW News. 24-aprel 2021-yil. URL: <https://www.dw.com/ru/trudoye-migranty-v-rossii-vernutesya-li-nelegaly-vuzbekistan/a-57316327>

## BORISH MAMLAKATLARI: QOZOG'ISTON, ROSSIYA FEDERATSIYASI, TURKIYA VA KOREYA RESPUBLİKASI

O'zbekistondan va O'zbekistonga yuz beruvchi migratsiya harakatiga migratsiya yo'laklarining dolzarbligi katta ta'sir ko'rsatdi. Ushbu migratsiya yo'lab harakatni belgilab beruvchi va yo'naltiruvchi madaniy, tarixiy va til bilan bog'liq aloqalar mavjud. Bunga qo'shimcha ravishda, ikki tomonlama mintaqada harakatlanishga oid bitimlar va mehnat shartnomalari negizida yaratilgan huquqiy bazani - Rossiya Federatsiyasida Markaziy Osiyodan kelgan migrantlar uchun tezkor tartib-qoidalar, shuningdek, Yevrosoyo Iqtisodiy Ittifoqiga (YOII) a'zo davlatlar o'rtaida ishchi kuchining erkin harakatlanishi bo'yicha tartibotlarni ta'kidlash lozim. (IOM, 2023). Ushbu rasmiy ma'lumotlarga qo'shimcha ravishda, rasmiy ishslash yoki yashash uchun ruxsatnomasiz, norasmiy ishslash va boshqa viza sxemalari doirasida, xususan, Rossiya Federatsiyasiga ishslash uchun ketgan kishilar ham bo'lganligi xabar qilingan (Ryazantsev va boshqalar, 2021). Yana bir ko'rsatkich sifatida, Turkiya Migratsiyani boshqarish agentligi (MBR) ham, Turkiya hududida tartibga solinmagan tarzda faoliyat yuritayotgan o'zbek migrantlarining soni 2022-yilda 7553 nafar, 2023-yil avgust holatiga ko'ra esa, 4954 nafar bo'lganini qayd etganini keltirishimiz mumkin. Ushbu tendensiyalarni yanada yaxlitroq tushunish va umumiyo ko'rinishga keltirish uchun O'zbekistonning rasmiy statistikasini Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Turkiya Respublikasi va Koreya Respublikasi milliy statistika idoralarining rasmiy statistik ma'lumotlari bilan to'ldirish alohida ahamiyatga ega.

O'zbekistondan ketgan migrantlar uchun beshta asosiy mamlakat Rossiya Federatsiyasi (1,1 million), keyingi o'rinnlarda Qozog'iston (296 ming), Ukraina (223 ming), Turkmaniston (67 ming) va Amerika Qo'shma Shtatlari (63 ming) bo'ldi (BMT DESA, 2021). Biroq 2022-yilda O'zbekiston fuqarolari quyidagi asosiy mamlakatlarga doimiy yashash uchun ko'chib o'tgan: Qozog'iston (79,5 foiz), undan so'ng Rossiya Federatsiyasi (16,4 foiz), Markaziy Osiyo davlatlaridan tashqari boshqa yo'nalishlar (2,7 foiz), Qirg'iziston (0,7 foiz), Tojikiston (0,5 foiz) va Turkmaniston (0,3 foiz)ni tashkil etdi (O'zStat, 2023).

2-JADVAL: O'ZBEKİSTONLIK LARGA ULAR BORADİGAN MAMLAKATLARDA TAQDIM ETILGAN DOIMIY YASHASH RUXSATNOMALARI, 2022-YIL (MUTLAQ QIYMATLAR)


Davlat	Doimiy yashash uchun ruxsatnomalar soni	Foizda
Qozog'iston	6,985	79.5
Rossiya Federatsiya	1,441	16.4
MODan tashqari boshqa yo'nalishlar	236	2.7
Qirg'iziston	63	0.7
Tojikiston	41	0.5
Turkmaniston	24	0.3
<b>Jami</b>	<b>8,790</b>	

Manba: O'zStat, 2023

### QOZOG'ISTON

Qozog'iston Milliy statistika byurosi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda mamlakatga 6631 nafar O'zbekiston fuqarosi kelgan. O'zbekistondagi manbalar shunga o'xshash sonni keltirgan: O'zbek migrantlarining umumiyo sonidan 6985 nafari Qozog'istonda yashash uchun rasmiy ruxsatnomasi olgan (O'zstat, 2023).

6-RASM: QOZOG'ISTONDAGI O'ZBEKİSTON FUQAROLARINING XALQARO MIGRANTLAR OQIMI (KIRUVCHI, CHIQUVCHI VA SOF), 2018-2022-YILLAR (MUTLAQ QIYMATLAR)



Manba: Qozog'iston Milliy statistika byurosi, 2023


### ROSSIYA FEDERATSIYASI

RosStat ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda mamlakatga 1,4 millionga yaqin O'zbekiston fuqarolari kirib kelgan, bu 2021-yil darajasiga to'g'ri keladi. 2021-yilda Rossiya Federatsiyasiga kelgan 1,45 million o'zbekistonlik migrantlarning 74 foizi u yerga ishslash uchun kelgan. Bu 2020-yilga nisbatan kelganlar sonining 100 foizdan ko'proqqa oshganini anglatadi, ya'ni COVID-19 pandemiyasi tufayli O'zbekistondan kelganlarning soni atigi 720 ming nafarni tashkil etgan edi.

COVID-19 pandemiyasi davrida, 2021-yil oktyabr oyida Rossiya Federatsiyasi[5] O'zbekiston fuqarolari uchun qurilish va agrosanoat kabi nihoyatda muhim sanoat tarmoqlarida ishslash uchun maxsus migrantlar kvotalarini belgiladi. 2022-yilning noyabrida Rossiya hukumati o'tgan yildan beri amalda bo'lgan kvotalarini bekor qilguniga qadar, ularning ostida O'zbekistondan faqat 11 ming ishchiga yuqorida qayd etilgan tarmoqlarda bir vaqtning o'zida uyushgan migratsiya sxemalari bo'yicha ishslashga ruxsat berilgan edi.

[5] Qo'shimcha ma'lumot : <https://base.garant.ru/77324140/>


7-RASM: 2018-2022-YILLARDA ROSSIYA FEDERATSIYASIDAGI O'ZBEKISTON FUQAROLARINING XALQARO MIGRANTLAR OQIMI (KIRUVCHI, CHIQUVCHI VA SOF) (MUTLAQ QIYMATLAR)



## TURKIYA

Boshqa yo'nalishlar qatorida, O'zbekiston va Turkiya Respublikasi o'rtaqidagi hamda Markaziy Osiyoda rivojlanayotgan mehnat yo'laklaridan biri bo'lmissiz, Koreya Respublikasi bilan mamlakat o'rtaqidagi muhimmigratsiya yo'laklarini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir (IOM, 2021). MBR ma'lumotlariga muvofiq, 2023-yil 6-aprel holatiga ko'ra, Turkiyada O'zbekiston fuqarolari oilaviy sabablar bilan yashash ruxsatnomasini olgan ikkinchi yirik guruhni (9,749 nafar kishi) va qisqa muddatli ruxsatnomalar berilgan beshinchiyirik guruhni (38,763 nafar) tashkil etadi. Yashash uchun berilgan ruxsatnomalar soniga ishlash uchun berilgan ruxsatnomalar ham kiradi: Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlariga muvofiq, 2021-yil holatiga ko'ra, Turkiya Respublikasida ishlash ruxsatnomasiga ega bo'lgan xorijliklar soni 1,681,035 nafar bo'lib, ularning 0,23 foizini O'zbekiston fuqarolari tashkil etadi. Biroq tarixiy tendensiyani tahlil qiladigan bo'lsak, so'nggi o'n yil ichida Turkiyada O'zbekiston fuqarolari ishlash uchun berilgan ruxsatnomalar soni 2011-yildagi 229 tadan 1,068 foizga oshib, 2021-yilda 3912 taga yetgan (TurkStat, 2023).


8-RASM: O'ZBEKISTON FUQAROLARIGA TURKIYA RESPUBLIKASIDA ISHLASH UCHUN BERILGAN RUXSATNOMALAR SONI, 2011-2021-YILLAR (MUTLAQ QIYMATLAR)



## KOREYA RESPUBLIKASI

KOSIS (Koreya statistik axborot xizmati) ma'lumotlariga ko'ra, COVID-19 pandemiysi tufayli O'zbekiston fuqarolarining xalqaro migrantlar oqimi 2019-yildagi 50,110 kishidan 2020-yilda 21,842 kishiga qisqariib, ikki barobar kamaygan va bu salbiy sof migratsiya qiyimatini (-5,818 kishi) hosil qilgan. 2022-yilda Koreya Respublikasida o'zbekistonlik xalqaro migrantlarning soni deyarli 34,5 ming bo'lgan, ammo sof migratsiya soni<sup>[6]</sup> o'n mingga yaqinini tashkil etgan. 34,406 nafar o'zbekistonlik migrantlarning 68 foizi erkaklar, 32 foizi ayollardir (KOSIS, 2023).

9-RASM: O'ZBEKISTON FUQAROLARINING KOREYA RESPUBLIKASIDAGI XALQARO MIGRANTLAR OQIMI (KIRUVCHI, CHIQUVCHI VA SOF), 2011-2022-YILLAR (MUTLAQ QIYMATLAR)




<sup>6</sup> Sof migratsiya raqami chiquvchi migrantlarni kiruvchi migrantlar sonidan ayirish orqali olinadi.

Ikki davlat o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlар savdo-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-gumanitar, transport-kommunikatsiya va boshqa sohalarda izchil rivojlanib bormoqda (Dadaboev va Soipov, 2020). Xususan, Koreya Respublikasining avtomobilsozlik va texnologiya sanoatining uzlusiz iqtisodiy o'sishi Sovet Ittifoqi parchalanganidan so'ng, O'zbekistonning yangi muhim tijorat hamkoriga bo'lgan ehtiyojini qondirdi (Rahimov, 2022).

O'n ikki yil avval, 2011-yilda Koreya Respublikasidagi O'zbek migrantlari uchun berilgan umumiy vizalarning 80 foizini mehnat migratsiyasi tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda mehnat migrantlari O'zbekiston fuqarolari uchun berilgan jami vizalarning atigi 44 foizini tashkil etgan. Aksincha, boshqa turdag'i vizalar orasida 2011-yilda ta'lif olish uchun berilgan vizalar atigi 7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda ta'lif vizalar boshqa maqsadlar uchun berilgan vizalarning 28-foizini tashkil etdi (o'z navbatida umumiy vizalar sonining 56 foizi) (KOSIS, 2023).

10-RASM: KOREYA RESPUBLIKASI TOMONIDAN O'ZBEKISTONLIK MIGRANTLARGA BERILGAN VIZALAR TURI, 2021-2022-YILLAR (MUTLAQ QIYMATLARDA)




Manba: KOSIS, 2023

## O'ZBEKISTONGA VA O'ZBEKISTONDAN PUL O'TKAZMALARI

O'zbekiston Markaziy banki (2023) tomonidan e'lon qilingan hisob-kitoblarga ko'ra, 2022-yilda O'zbekistonga pul o'tkazmalari oqimi qariyb 16,9 milliard AQSh dollariga teng bo'lib, mamlakat yalpi ichki mahsulotining (YAIM) 17,1 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda O'zbekistondan boshqa mamlakatlarga pul o'tkazmalari oqimi 0,4 milliard AQSh dollarinini tashkil etdi (JB, 2022). Mamlakatga kelib tushgan pul o'tkazmalari so'nggi uch yilda (+180 foiz) o'sdi, ya'ni 2019-yildagi 6,0 milliarddan 2022-yilga kelib, 16,9 milliard AQSh dollariga yetdi. Buni COVID-19 sababli harakatlarning cheklanishi va o'tgan yillarga nisbatan pul o'tkazmalari rasmiy usullarining ko'proq qo'llanilgani bilan izohlash mumkin (JB, 2022).

11-RASM: O'ZBEKISTONGA PUL OTKAZMALARI OQIMI VA YAIMDAGI ULUSHI, 2020-2022-YILLAR (MILLION AQSH DOLLARI VA FOIZDA)



Manba: O'zbekiston Markaziy banki (2023)a , JB (2023)b va (2022)c

2022-yil fevralida Rossiyaning Ukrainaga bostirib kirishi va Rossiya Federatsiyasiga nisbatan joriy qilingan sanksiyalarga qaramay, O'zbekistonning Rossiya Federatsiyasidan olgan pul o'tkazmalari ulushi ikki qiymatlari o'sish bilan ortib bormoqda: 2019-2021 yillarda kelib tushgan umumiyligi pul o'tkazmalari miqdorining yarmiga teng bo'lib, 2022 yildagi jami o'tkazmalarning 85 foizini (14,5 mlrd. AQSh dollari) tashkil etdi (O'zbekiston Markaziy banki, 2023). Ushbu o'sishning sezilarli qismi mehnat migrantlarining uyga pul jo'natish uchun rasmiy kanallardan ko'proq foydalanimishini aks ettiradi, natijada transchegaraviy pul oqimlarini qayd etish yaxshilanadi (JB, 2022).

## QISQARTMALAR

**MO** – Markaziy Osiyo

**COVID-19** – Koronavirus kasalligi

**YalIM** – Yalpi ichki mahsulot

**YOII** – Yevroosiy oqtisodiy ittifoqi

**IDMC** – Ichki ko'chish monitoringi markazi

**IDPs** – Ichki ko'chirilgan shaxslar

**KOSIS** – Koreya statistik axborot xizmati

**MBR** – Turkiya Respublikasi Migratsiyani boshqarish raisligi

**SEECA** – Janubi-Sharqiy Yevropa, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo

**UIS** – UNESCO Statistika instituti

**BMT DESA** – Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha departamenti

**UNHCR** – Birlashgan Millatlar Tashkilotining Qochqinlar bo'yicha Oliy komissari

**O'zStat** – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

**JB** – Jahon banki

### RASMLAR VA JADVALLAR RO'YXATI

1-rasm – O'zbekistonga ko'chib kelganlar soni va o'sish sur'ati, 2018-2022-yillar (ming)	5
2-rasm – O'zbekistondagi ichki migratsiya oqimi, 2018-2022-yillar (ming)	5
3-rasm – Ichki migratsiyaning taqsimlanishi, 2022-yil (foizda)	5
1-jadval – 2022-yilda berilgan doimiy yashash uchun ruxsatnomalarning fuqarolik bo'yicha taqsimlanishi, (mutlaq qiymatlar va foiz)	6
4-rasm – O'zbekistondan ketgan emigrantlar soni va o'sish sur'ati, 2018-2022-yillar (ming)	6
5-rasm – O'zbekistondan ketgan emigrantlar oqimi va o'sish sur'ati, 2018-2022-yillar (ming)	6
2-jadval – O'zbekistonliklarga ular boradigan mamlakatlarda taqdim etilgan doimiy yashash ruxsatnomalari, 2022-yil (mutlaq qiymatlar)	7
6-rasm – O'zbekiston fuqarolarining Qozog'istondagi xalqaro migrantlar oqimi (kiruvchi, chiquvchi va sof), 2017-2021-yillar (mutlaq qiymatlar)	7
7-rasm – O'zbekiston fuqarolarining Rossiya Federatsiyasidagi xalqaro migrantlar oqimi (kiruvchi, chiquvchi va sof), 2017-2021-yillar (mutlaq qiymatlar)	8
8-rasm – O'zbekiston fuqarolariga Turkiya Respublikasida ishlash uchun berilgan ruxsatnomalar soni, 2011-2021-yillar (mutlaq qiymatlar)	8
9-rasm – O'zbekiston fuqarolarining Koreya Respublikasidagi xalqaro migrantlar oqimi (kiruvchi, chiquvchi va sof), 2011-2022-yillar (mutlaq qiymatlar)	8
10-rasm – Koreya Respublikasi tomonidan O'zbekistonlik migrantlarga berilgan viza turlari, 2021-2022-yillar (mutlaq qiymatlar)	9
11-rasm – O'zbekistonga pul o'tkazmalari oqimi va YalMdagi ulushi, 2019-2022e (million AQSh dollarida va foizda)	9

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Qozog'iston Respublikasi Strategik rejalashtirish va islohotlar agentligi Milliy statistika byurosi

2023 *Migratsiya balansi oqimlari.*

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki

2023 *2022 yil hisoboti.*

Dadabaev T. va Soipov J.,

2020 "Ish topishni xohlaysizmi? O'zbekistondan Yaponiya va Janubiy Koreyaga mehnat va ta'llim migratsiyasi masalalarini qayta ko'rib chiqish", Acta Via Serica, 5(2): 111-140.

Federal Davlat statistika xizmati (Rosstat)

2023 *Aholini ro'yxatga olish va so'rovlar.*

Ichki ko'chish monitoringi markazi (IDMC)

2022 *Ichki ko'chish bo'yicha global hisobot (GRID) 2023 - Ichki ko'chish va oziq-ovqat xavfsizligi.* Ichki ko'chish monitoringi markazi, Jeneva.

Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot (IOM)

2021 *Jahon migratsiya hisoboti 2022.* McAuliffe, M. va A. Triandafyllidou (tahrirlar), Xalqaro migratsiya tashkiloti, Jeneva.

2023 *Janubi-Shraqiy Yevropa, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasi harakatda - Migratsiya*

*to'g'risidagi ma'lumotlar hisoboti 2021–2022.* Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot, Vena.

Koreya statistik axborot xizmati (KOSIS)

2023 *Viza turi va fuqaroligi bo'yicha mamlakatga keluvchi chet elliklar soni.*

Turkiya Respublikasi Migratsiyani boshqarish raisligi (MBR)

2023 *Yashash uchun ruxsatnomalar*

Rakhimov M.,

2022 "O'zbekiston va Janubiy Koreya munosabatlari transmintaqaviy va global istiqbollar tanlovlardan", Yevroosiyo tadqiqotlari jurnali, 13 (2): 200-211.

Ryazantsev, S., Sadvokasova, A. and Jeenbaeva J.

2021 *Markaziy Osiyoda mehnat migratsiyasi dinamikasini o'rganish – Rossiya Federatsiyasining migratsiya yo'lagi – Umumlashtirilgan hisobot.* Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot, Moskva.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (O'zStat)

2023 *Dastlabki ma'lumotlar - O'zbekiston Respublikasidagi demografik holat – 2022 yil yanvar-dekabr*

TurkStat

2023 *Xalqaro migratsiya statistikasi 2021*

UNESCO Statistika Institutti (UIS)

2023 *UIS ma'lumotlari.*

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha departamenti (UN DESA)

2021 *Xalqaro migrantlar soni*

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Qochqinlar bo'yicha Oliy Komissari (UNHCR)

2023 *Afg'onistonidagi vaziyat yuzasidan Qochqinlar bo'yicha mintaqaviy chora-tadbirlar rejasi: 2023 yil yanvar-dekabr.*

2022 *Yil yarmi tendentsiyalari 2022.*

Jahon banki (JB)

2023 *Jahon taraqqiyot ko'satkichlari.*

2022 *Migratsiya va rivojlanish to'g'risida qisqa hisobot 37.*

2021 hamda Osiyo taraqqiyot banki. *Iqlim xavfi nuqtai nazaridan mamlakat profili: O'zbekiston.*



 Schweizerische Eidgenossenschaft  
Confédération suisse  
Confederazione Svizzera  
Confederaziun svizra

Swiss Agency for Development  
and Cooperation SDC

 **IOM**  
UN MIGRATION